



**“O‘ZBEKISTONGA TURISTLARNI KENG KO‘LAMDA JALB
QILISH VA BU BORADA TURKIYA TAJRIBASIDAN SAMARALI
FOYDALANISH” TO‘G‘RISIDA**

Anorboyev Bexruzjon Alijon o‘g‘li

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlar, tashabbuslar davrida turizmga qaratilayotgan e‘tibor va uning iqtisodiyot bilan bog‘liq jihatlarining ahamiyati. Shuningdek, mamlakatimizda mavjud turistik maskanlar va boshqa madaniy qadamjolarini dunyo ko‘z oldida gavdalantirish. Bu yo‘lda dunyo bo‘ylab turizm tarmog‘i bilan mashhur bo‘lgan Turkiya tajribasidan keng va tahliliy foydalanish. Tajribani o‘zlashtirish mobaynida mamlakat bo‘ylab sobitqadamlikni saqlash.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, turizm, o‘zgarishlar, Turkiya turizm tajribasi, statistikalar, turistlar, rejalar.

Turizm har qanday mamlakat iqtisodiyotining eng muhim va foydali tarmog‘i hisoblanib, odatda hukumatlar uning rivoji yo‘lida ko‘plab istiqbolli tashabbuslarni ilgari suradi. Turizmning asosiy ishtirokchilari bo‘lgan turistlar mamlakatga turli valyutadagi yirik mablag‘ olib kiradi va mehmonxonalar, restoranlar, mahalliy mahsulotlar, transport hamda boshqa turistik xizmatlardan foydalanadi. Bu esa aholini bandlik bilan ta‘minlashga yordam beradi. Shu sababli, hukumat, ayniqsa, iqtisodchilar turistlarning rolini yuqori baholaydilar va ularning oqimini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadilar.

Xususan, fikrimning asosi sifatida 2018-yil “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi e‘lon qilindi.



Dasturning III bobi «Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻnalishlari» deb nomlangan. Uning **Tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish** boʻlimida amalga oshirilishi moʻljallanayotgan quyidagi chora-tadbirlar belgilab olinmoqda. **Xorijiy sayyohlarning tashrifi uchun keng sharoitlar yaratish, ularning sayohat dasturlarini mazmunan boyitish va koʻrsatiladigan xizmatlar turlarini kengaytirish hisobiga turizmni jadal rivojlantirish** belgilab olinmoqda. Buning uchun 2018-yil 10-fevralgacha Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi, Tashqi ishlar vazirligi, “Oʻzbekiston havo yoʻllari” MAK, Moliya vazirligi, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamkorligida normativ-huquqiy hujjat loyihasi tayyorlanadi deyilgan rasmiy xabarda. Bundan tashqari, 2022–2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi 3-ustuvor yoʻnalish **Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash**ning 35-maqsadida “Oʻzbekiston boʻylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish. Toʻsiqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band boʻlgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish kabi yuksak saviyali tashabbuslar ilgari surilgan.

Men ushbu maqolada Oʻzbekistonga turistlarni jalb qilib olgandan soʻng, ularni mamlakat hududida qanday qilib olib yurish kerak, ularga qanday qilib xizmat koʻrsatish kerak kabi fikrlar va muammolar haqida gapirmoqchimasman. Chunki, Oʻzbekiston bu borada, ayniqsa, hududlar kesimida juda chiroyli va professional xizmatlar koʻrsatmoqda. Mening maqsadim turistlar, ularning oila aʼzolari, qoʻshnilari va qarindoshlarini ham yurtimizga jalb qilish.

Meni bir savol qiynaydi, turistlar nima uchun Turkiya, Fransiya kabi davlatlarga rekord darajada tashrif buyuradi. Bir yil davomida 5 yoki 10 million emas, 35 yoki 40 million atrofida. Bu juda katta miqdor. Xoʻsh bunga sabab nima, iqtisodiy qudratimi yoki diqqatni tortuvchi Eyfeli-yu sohillarimi? Yoʻq, men bu savolga



butunlay “yo‘q” deyman. Agar kimdir bunga “ha, shunday” desa, demak, bu shaxs yo o‘zbekistonlik emas, yo O‘zbekiston haqida tushunchaga ega emas deb, hisoblagan bo‘lar edim. Men ushbu maqolam bilan aynan, O‘zbekiston haqida tushunchaga ega bo‘lmagan shaxslar va puli bo‘la turib qaysi davlatga borishni bilmayotgan dunyodagi iqtisodiy yaxshi ahvoldagi insonlarga biz ham Turkiya va Fransiya kabi turistlarni kutib olishga, ularga xizmat ko‘rsatish va chiroyli tarzda kuzatib qo‘yishga tayyor ekanligimizni yetkazish va **nuqtai nazariga qanday qilib uqtirishni** nazarda tutmoqchiman.


Ma‘lumki, hozir XXI asr – rivojlangan texnologiya va axborot asri. O‘zbekiston bulardan deyarli barcha sohalarda keng foydalanmoqda. Ammo, turizmga emas, men shunday o‘ylayman. Agar foydalanganda yoki kengroq foydalanganda yiliga 6 yoki 7 million emas, ko‘pi bilan 20 yoki 25 million turist tashrif buyurgan bo‘lar edi. Hech e‘tibor berganmizmi, televizorni yoqib tomosha qilsak, reklama sifatida chiroyli ohang bilan Turkiyaga sayohat qilishga undovchi videorolik namoyish etiladi. Unda Turkiyaning tarixiy joylari, o‘ziga jalb qiluvchi sohillari, kiyinish madaniyati aks etgan kadrlar va ajoyib turk xalqi qisqa fursat ichida ko‘rsatib o‘tiladi. Aniq bilaman, geografiyadan bilimga ega bo‘lmagan inson Turkiyada bunday sohillar borligini tasavvur ham qila olmaydi. Lekin, ular **tasavvur uyg‘otayapti**. Uyg‘otganda ham chiroyli musiqa yordamida insonning xotirasidan o‘chmaydigan qilib, yana u yerning nomi va qanday qilib borishni gapirmasdan aytib o‘tib ketayapti. Davlatlarga turist sifatida tashrif buyurishga undovchi bu kabi reklamalar oxirgi 5–8 yil ichida ko‘plab davlatlar orasida ommalashib bormoqda. Negaki, bu loyiha o‘zini oqlayapti. Xo‘sh, endi o‘ylab ko‘raylik, nimaga bu loyiha bizda o‘zini oqlamasligi kerak? Albatta, oqlaydi. Oqlamasa ham bir sinab ko‘rish kerak-ku. Yana bir narsaga e‘tibor beraylik va o‘ylab ko‘raylik, Turkiya aynan, bizga ko‘rsatiladigan kadrlarini boshqa davlatlarda ham namoyish etayaptimi? Balki boshqa davlatlarga misol uchun iqlimi issiq mamlakatlarga, asosan, sohillarini namoyish etar yoki xalqi kiyinishga va zamonaviy modalarga qiziqadigan mamlakatlarga, asosan, zamonaviy va ommabop kiyimlari va kiyim do‘konlarini namoyish etar va hokazo. Yana bir qiziqarli jihat, Turkiya o‘sha reklamasini Afrika

mamlakatlarida namoyish etadi deb, o'ylaysizmi? Axir ularning aholisi kambag'al va qashshoq-ku. Reklama qilgan bilan, keladimi? Albatta yo'q. Demak, ular ushbu turistik reklamalarini aholisining iqtisodiy ahvoli yaxshi bo'lgan mamlakatlargagina namoyish qiladi. Keyingi yana bir asosiy jihatlardan biri Turkiya reklamani Yangi Zelandiya va Argentina aholisiga ommaviy ravishda namoyish qiladi deb o'ylaymizmi? Albatta yo'q. Chunki bu kabi davlatlar Turkiyadan ancha yiroqda va xarajatlari ham qimmatga tushadi. Aytmoqchi bo'lganim ular reklamasini ma'lum bir radiusdagi mamlakatlarga ularning kelib chiqishi, qiziqishi va iqlimini o'rganib, tahlil qilib, so'ng, namoyish etadi. Bizga reklama qildimi, demak, biz ularga yaqinmiz va ularning talablarini qondira olamiz.



Turkiya videoroligi namoyish etiladigan taxminiy hududlar

Yuqoridagi rasimga asos sifatida aytish mumkin-ki, Turkiyaga eng ko'p tashrif buyuradigan turistlar rasmda qora aylana bilan chegaralangan hududlardan tashrif buyurar ekan: Rossiya, Germaniya, Eron, Gruziya, Bolgariya, Gretsiya, Ozarbayjon va boshqalar.



Bu esa, Turkiyaga tashrif buyurgan turistlar soni 2000–2023 yillar. Koronavirus pandemiyasi davrida tabiiyki, turistlar oqimi sekinlashgan. Lekin, 2022–2023 yillarda reytingni aql bovar qilmas darajada saqlagani tahsinga sazovor.

Men buni “Aqlli reklama” deb nomlagan bo‘lardim. Agar ular ushbu loyihani aynan men tahlil qilgandek yoki men tahlil qilgandan ham yaxshiroq tahlil qilib, amalga oshirgan bo‘lsa, ularga tasanno. Xo‘sh biz-chi, turklar qilibdi-ku shuni, o‘zbeklar qila olmaydimi? Albatta qiladi, bundan ham yaxshiroq qiladi. Misol uchun, ushbu yuqoridagi loyiham mazmunidan kelib chiqib, chet eldagi gavjum ko‘chalarga turli xil reklama bannerlarini osishni taklif etaman. Nimaga endi televizorda ko‘rsatilgan narsa reklama bannerida ko‘rsatilmaslgi kerak. To‘g‘rimi? Tasavvur qiling, Turkiya ko‘chalaridagi reklama bannerida “Samsung Galaxy S25 Ultra”ning o‘rniga orqa fonda Registon maydoni tushirilgan o‘zbekistonlik akaxon oq yaktakda do‘ppini bostirib olib, qo‘lida bir piyola choy bilan “O‘zbekistonda kutaman” yoki shunga o‘xshash psixologik iboralar yordamida o‘sha davlat tilida yoki ingliz tilidagi varianti bilan osilib turibdi. Bu kabi reklamalar kamida 10 kun osilib tursa, uning tagidan o‘tuvchi har qanday inson “Bugun televizorda ko‘rdim, endi ko‘chada ko‘rayapman. Demak, borib ko‘rish kerak ekan” deb yuboradi, Inshaaloh. Ijtimoiy tarmoqlarda obunchilari milliondan ko‘p blogger va vaynerlar to‘lib ketgan. Ularni to‘g‘ri ma’noda ijtimoiy tarmoqning asosiy o‘yinchilari desak bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti ular bilan ham reklama bo‘yicha shartnomalarni amalga oshirsa bo‘ladi. Keyin bizning yurtimizni haligi



reklama bannerini ostidan o'tuvchi insonning xayolidan umuman o'chirib bo'lmaydi. E'tibor beraylik, bu yerda hozir televizorda ko'rsatdik, bannerda ko'rsatib nima foyda, televizorda ko'rsatsak, shuni o'zi yetadi, hamma ko'radi, ijtimoiy tarmoqlar esa umuman kerak emas, also, bunaqa o'ylamaylik. Bu orqali biz ularning ong ostini yanada chuqurroq egallashimiz mumkin. Maqsadni katta olaylik, O'zbekistonga sayohat qilish har qanday chet ellik uchun an'ana yoki qadriyatga aylansin. To'g'ri, bu juda noodatiy, moliyaviy tomonlama ham juda katta mablag'ni talab qiladi. Biroq, bu uzoq kelajakda mamlaktimiz foydasiga ishlashi aniq. Bu xuddi mamlakatimiz turizmiga investitsiya kiritishga o'xshaydi va yakuni, albatta, katta iqtisodiy foyda bilan. Unutmaylik, hech kim qilmagan bo'lsa, biz birinchisi bo'lamiz. Agar qilmasak, tez orada buni boshqalar bizning o'rnimizga qiladi va tabiiyki, turistlarni ham keskin yo'qotamiz. Biz o'sha reklama orqali shunday maqsad qo'yishimiz kerakki, uni ko'rgan har qanday chet ellik fuqaro O'zbekistonga sayohat qilishni diliga tugub qo'ysin. O'zbekistonga sayohat qilsam, armonim qolmasdi deb, hammaga aytib yursin. Biz qadimiy maskanlarimiz, buyuk tariximiz, madaniyatimiz, ma'rifatimiz, urf-odatlarimiz va an'alarimizni O'zbekistonda yaxshi ko'rsata olamiz. Lekin, qayerga sayohat qilishni bilmayotganlar va kelajakda qayergadir sayohat qilishni rejalashtirayotganlarga faqatgina O'zbekistonga sayohat qilishga undovchi turistik yaxshi bir reklama yordam bera oladi, xolos. Qolgan omillar O'zbekistonda mavjud va u kundan kunga rivojlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://kun.uz/28993456?q=%2Fuz%2F28993456#>
2. <https://davlatdasturi.uz/uz-Latn/strategy>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiyada_turizm
4. <https://images.app.goo.gl/eTs8zXhvFr14Dypv5>